

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MUHOFAZA QILINADIGAN TABIIY HUDUDLARNING ROLI**

**Bekbulatova G.A.,**

*Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, g.f.n.*

**Tajibaeva L.R.,**

*Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170434>

***Annotatsiya:** Bugungi kunda turizmning alohida yo'nalishlaridan biri bo'lgan ekoturizm sohasi keng ko'lamda rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga hozirda ekoturizm tushinchasi, uning shakllanish tarixi va uni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hususan, ekoturizmning mohiyati va rivojlanish tendensiyalari, ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, ekoturistik resurslardan foydalanish, ekoturizmning ichki imkoniyatlari va barqaror rivojlanishi, ekoturizmning ison ruhiyatiga ijobiy ta'siri, ekoturizmni boshqarishning metodologik asoslariga oid olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.*

***Kalit so'zlar:** ekoturizm, ekoturistik zona, qo'riqxonalar va buyurtmaxona, endemik o'simliklar, ekoturistik destinatsiya, biosfera rezervati, cho'liston, Borsakelmas, yoriqlar va chinklar.*

Hozirgi kunda butun dunyoda bo'layotganidek mamlakatimizda shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasida ham turizmga bo'lgan e'tiborning ortib borayotgani barchaga sir emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida eski shaharlar va tarixiy yodgorliklar juda ko'p bo'lib, hozirgi davr va qadim o'tmishni bog'lovchi rishta hisoblanib kelgan. Bunga yaqqol misol sifatida arxeologik izlanishlar natijasida topilgan 131 ob'ektlar, 25 arxitektura namunalari, 89 monumental san'at yodgorliklari va 40 ga yaqin diqqatga sazovor joylarni keltirish mumkin.

Qadimda Buyuk Ipak Yo'li ustida joylashgan qadimiy shaharlar va karvon saroylar o'rnini egallab kelayotgan yangi va zamonaviy mehmonxonalariga ham hozirda talab yuqori. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida 30 ga yaqin mehmonxona va mehmon uylar kelgan mahalliy va xorijiy turistlarga zamonaviy xizmatlar ko'rsatib kelmoqda. Birgina 2018 yilning I-choragiga ko'ra mehmonxonalarimizda 7541 ta turistlarga xizmat ko'rsatilgan bo'lib, shulardan 942 tasi chet ellik turistlarni tashkil qiladi. Shuning o'ziyoq turizm salohiyatining naqadar yuqoriligidan dalolat beradi.

Qoraqalpog'istonning ajoyib arxeologik yodgorliklari, o'tmishdagi folklor badiiy san'ati, ijro badiiy san'ati, hunarmandchiligi, tabiatni muhofaza qilish hududlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, I. Savitsky nomidagi Qoraqalpog'iston davlat badiiy san'ati muzeyi kabi ajoyib muzeylar nafaqat olimlar, balki O'zbekistonda va xorijda keng jamoatchilik qiziqishini uyg'otmoqda. Qadimgi

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Xorazm tsivilizatsiyasining asosiy markazlarini qamrab olgan "Qadimgi Xorazm Oltin xalqasi" turistik yo'nalishiga keng etibor ortib bormoqda. Tuproq qala (eramizning I-VI) - Qadimgi Xorazm hukumdorlarining rezidentsiyasi bo'lib xizmat qilmoqda. Xorazmning daslabki o'rta asr paytaxti - Kat qala (Beruniy), Xorazmning orta asr poytaxti - Gurganj (Ko'hna Urganch, Turkmaniston) va so'nggi asrlardagi Xiva (Xorazm viloyati) shular jumlasidandir. Qoraqalpog'istonning merosi dunyo madaniyatida betakror va o'ziga hos bo'lib, bugungi kunda bu tadqiqotchilar hamda turistlar orasida ko'proq ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

**Orol dengizi** O'rta Osiyo cho'llarining markazida, okean sathidan 53 m. balandlikda joylashgan. U 1960-yillargacha bo'lgan davrda maydoni bo'yicha (64, 5 ming km<sup>2</sup>) dunyoda to'rtinchi o'rinni egalab kelgan va o'rtacha chuqurligi - 16 m, eng chuqur yeri - 68 metrdan iborat bo'lgan.

Orol dengiziga Markaziy Osiyodagi eng yirik daryolar – Amudaryo va Sirdaryodan suv quyilib turgan. Bu daryolarning suvlaridan nooqilona foydalanish oqibatida, shuningdek XX asrning 70-yillari Amudaryoning Orol dengiziga quyilishida to'siqlarning paydo bo'lishi natijasida dengizning qurib qolishiga sabab bo'ldi.

Keyingi 30-40 yilda dengizning maydoni sezilarli darajada qisqarib ketdi. XX asrning 50-60-yillari boshida dengiz sathi 53,5 m (Boltiq dengizi sathidan) edi. Suv sathining o'zgarishi 1970-yillari u 2, 4-metrga tushib qolgan vaqtida yaqqol sezila boshladi. 2009-yilning malumotlari bo'yicha, Orol dengizining markaziy qismining butunlay qurishi kuzatildi. Bu paytda uning maydoni 11,8 ming km<sup>2</sup>, suvining umumiy xajmi 1960-yildagi suv xajmining 10% tashkil etdi. Orol dengizi suvining chorlik darajasining ortib borishi dengiz hayvonat dunyosining qisqarib ketishiga shuningdek daryo suv xajmining qisqarishi bo'lsa bu hududning sahro (cho'liston)ga aylanishiga va buning oqibatida iqlimning o'zgarishiga olib keldi.

**Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati** Amudaryo qirg'oqlari bo'ylab Beruniy va Amudaryo tumanlari hududida joylashgan. Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati Qoraqalpog'istan Respublikasining Nukus shaxridan 90 km, Beruniy tumani markazidan 44 km uzoqlikda joylashgan.

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatining umumiy maydoni 68717,8 gektarni tashkil qiladi. Hudud 3 zonaga bo'lingan, qo'riqxonaga 11568,3 gektar, bufer 6731,4 gektar va o'tish 50418,1 gektardan iborat.

Bu hududning iqlimi keskin kontinental. Qishlari o'rtasha sovuq va qorli. Absolyut minimum – 26 °C ga teng bo'lganda, yanvarning o'rtacha temperaturasi noldan 4-5 °C gacha pasayadi. Yozi issiq xaroratning absolyut maksimumi +42,6 °C. Bu hududlar asosan bahor va kuzda o'rtacha 80 mm yog'in yog'adigan O'rta

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Osiyoning eng quruq hududlarining biri hisoblanadi. Hududda o‘simliklarning 419 ga yaqin turlari mutaxassislar tamonidan kuzatilgan.

Yavvoyi hayvonlar: Hududda 348 turdagi umirtqali hayvonlar, shuning ichinda, 41 turdagi baliqlar, 2 amfibiyalar, 24 sudralib yuruvchilar, 243 qush (migratorlar bilan) hamda 38 sut emizuvchilar tizimga olingan. Shundan, baliqlarning 10 turi, sudralib yuruvchilar 2 turi, qushlarning 14 turi va sut emizuvchilarning 4 turi O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan, 18 turi bo‘lsa Tabiyatni qoriqlash xalqaro tashkilotining Qizil tizimiga kiritilgan.

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirish maqsadida 3 ta ekoturizm marshruti tashkil etilgan.

**"Borsakelmas" davlat buyurtma qo‘riqxonasi** bo‘yicha O‘zbekiston va Fanlar akademiyasi takliflari asosida Ustyurt platosi hududida uning tabiiy obektlari va komplekslarini himoya qilish maqsadida 2022-yili tashkil etilgan. Qoraqalpog‘istan Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani Ustyurt tekisligida 280 000 gektar yer maydonidan iborat bo‘lib, shundan 44 000 gektar yeri qo‘riqlash zonasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasidagi yirik batqoqliklardan biri hisoblangan Borsakelmas past tekisligi hududida joylashgan. Hudud relyefi tekislikdan iborat bo‘lib, karst relyef formalari, yani voronkalar, cho‘kmalar va boshqalar ko‘p uchraydi.

Barsakelmas botigi denudatsion-deflyatsion tipga ega bo‘lgan erozion-sho‘rli yopiq botiq hisoblanadi. Pasttekistlikning tubi tuz qatlamlari va rapa, yani yuqori konsentratsiyali tuzli birikmalar bilan qoplangan. Pasttekistlikning eni 60-80 km ni tashkil etadi. Hududning iqlimi quruq va keskin kontinental tipga ega bo‘lib, yanvar oyida o‘rtacha temperatura  $-6 -8^{\circ}\text{C}$  daraja, iyul oyida  $+28+30^{\circ}\text{C}$  darajani quraydi. Absolyut daraja yanvar oyida  $-39^{\circ}\text{C}$  darajagacha, yozda  $+46^{\circ}\text{C}$  darajagacha bo‘lgan. Yillik yog‘in miqdori 100-120 mm bo‘lib, asosan qish-bahor fasliga to‘g‘ri keladi. Borsakelmas cho‘kmasi va uning atrofidagi hududlarda tabiiy obektlardan karst voronkalari va cho‘kmalar, tabiiy tuz zaxiralaridan Borsakelmas tuz koni va boshqalar alohida ajralib turadi.

Tarixiy obektlardan taxminan XIV-XV asrlarga tegishli eski toshqo‘rg‘on qoldiqlari (Alang qala) ochiq sardoba va boshqa obektlar mavjud bo‘lib, kelajakda ekoturizm marshutlarining tashkil etilishida asosiy tamosha va ziyorat qilish obektlari sifatidagi ahamiyatga ega hisoblanadi.

**"Sudoche-Akpetki" davlat buyurtma qoriqxonasi.** "Sudoche-Akpetki" davlat buyurtma qo‘riqxonasining hududi "Sudoche ko‘llar tizimi" uchastkasi va "Akpetki" uchastkalari kabi tabiiy hududlardan tashkil topgan, umumiy yer maydoni 280507 gektar, shundan: "Sudoche ko‘llar tizimi" uchastkasi 84702 gektar, "Akpetki"

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

uchastkasi 195805 gektarni tashkil etadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynaq, Qo‘ngirot va Taxtako‘pir tumanlar hududida joylashgan. "Sudoche ko‘llar tizimi" uchastkasi tipik delta ko‘l hisoblanadi. Ko‘l akvatoriyasi va uning g‘arbiy qismidagi Ustirt platosi mintaqaning biologik xilma-xilligini ta‘minlaydi.

Sudoche ko‘li hozirgi Amydaryo deltasida landshaftning xilma-xilligini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Mintaqada 2 xil ekotizim mavjud bo‘lib, ular tabiiy faunistik majmualar, suvli-botqoq hududlar va cho‘l uchastkalaridan iborat.

**Ekoturistik maskanlar:** Qo‘riqxonada XIII-XIV asrlarda O‘rta Osiyoni Volga bo‘yi, Evropa va janubi-g‘arbiy Osiyo davlatlari bilan bog‘lovchi Buyuk Ipak Yo‘li ahamiyatiga ega maskanlarning biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu yodgorlik atrofida 5 gektar yer ajratilib, ekologik sayyohlik manzili barpo etilmoqda. Bu ham ko‘l tabiyatini sevichilar uchun va bu yerning endemik o‘simlik va hayvonat olamini tomasha qiluvchilar uchun ajoiyb maskanlarning biriga aylanadi deb o‘ylayman.

**"Janubiy Ustyurt" milliy tabiat bog‘i.** Ustyurt platosi G‘arbda Mang‘ustov-Qora-Bo‘g‘oz ko‘rfazida, Orol dengizidan sharqda Amudaryo deltasining o‘rtasida joylashgan. Janubiy Ustyurt Milliy bog‘ining umumiy maydoni 1 447 143 gektar, qo‘riqxonada zonasi 934 584 gektar, rekreatsiya zonasi 69 515 gektar, xo‘jalik maqsadidagi zona 443 044 gektarni tashkil etadi. Bu yerda yer yoriqlar va chinklar bor. Chinklarning balandligi 250-300 metrgacha Ustyurt platosida sozli tekisliklari, keng qirg‘oq vodiylar, qadimgi va hozirgi vaqtdagi suv oqimlarining kanallari keng tarqalgan. Ustyurt mintaqasi keskin kontinental iqlim o‘zgarishiga moyil bo‘lib, qishda sovuq, yozda issiq va quruq bo‘ladi. "Janubiy Ustyurt" milliy bog‘i Sariqamish ko‘li hududini o‘z ichiga oladi. Bu hududlarda ham ko‘ngil ochar oyinlar, suniy akvaparklar tashkil qilish, hududning maydonining kattaligi va asosan tekislikdan iboratligini inobatga olgan holda ekstremal sportni yaxshi ko‘ruvchilar uchun o‘ziga xos turistik maskanga aylantirish maqsadga muvafiq bo‘ladi.

**Xulosa:** Ekoturizmning davlatning strategik tarmog‘iga aylantirilishida turizm infratuzilmasini takomillashtirish va sayyohlarni ko‘proq tabiiy obektlar, yani tog‘lar, o‘rmonlar, daryolar, ko‘llar, g‘orlar, cho‘l va adirlarda yuzaga kelgan noyob landshaftlar jalb qilishini hisobga olib, ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha ekoturizmning yangi imkoniyatlarini o‘rganib chiqishni va yanada kengaytirishni taqozo etadi. Tumanlar bo‘yicha turistik salohiyatini baholash turistik destenatsiya obektlari bilan bog‘lovchi yangi turistik marshutlar ishlab chiqish juda muhim hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi turizmini kompleks rivojlantirishda turistik resurslardan oqilona foydalanish, sayyohlar tashiriflari bilan bog‘liq xizmatlar sohasini rivojlantirish, muammo va istiqbollarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tafsiyalar ishlab chiqish o‘lkamiz turizmini rivojlantirishga asos bo‘la oladi.

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Hududning ekoturistik obektlari va ularni bir-biri bilan bog‘lovchi marshutlar va geografik platformalarini yaratish nafaqat xalqaro turistlar uchun balki mahalliy turistlar uchun ham ancha yengiliklar bo‘lar edi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi ekoturistik obektlarni oraliq masofasining olisligi mahalliy turistlar uchun ham ancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu sababli hududning ichki infrastrukturasini yaxshi yo‘lga qoyib olsak, ichki marshutlar va mahalliy mexmon uylarini tashkil etish turizm rivoji va uning istiqboli uchun ham maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

## Adabiyotlar:

1. Bekbulatova G.A., Xodjaeva G.A., Turizm hám rekreatsiya geografiyasi, Nukus. «Bilim»,2024. 244 b.
2. Бекбулатова Г.А., Жолымбетов Б. Пути и возможности развития туризма в Каракалпакстане, «Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(115) 2023.
3. Bekbulatova G.A., Tojibaeva L.R., Issues of ecotourism organization and development in the territory of the republic of Karakalpakstan, Science and Education in Karakalpakstan, ISSN 2181-9203 №4/1 (44) 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun T.: 1999.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi”ni tashkil etilishi to‘g‘risidagi 2016-yil 2-dekabrda PQ-2666-sonli qarori.
6. Gulmetov F.E., Allabergenov A.A. Turizm geografiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: “Talqin”, 2004.
7. П.Р.Реймов, Я.Г.Худайбергенов Исследование трансформации геосистем опустынивающихся территорий Южного Приаралья. Нукус. 2024.
8. [www.tour.uz](http://www.tour.uz)
9. [www.karakalpakstan.travel](http://www.karakalpakstan.travel)